



XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 25 - yanvar

VI-71-12-4-67-K/24

Shahrisabz tuman hokimligi

2023-yil mobaynida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar va amalga oshirilgan ishlar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentabrdagi "Ochiq budget" axborot portal orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-5250-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil aprel oyidagi Shahrisabz tuman budgeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risida"gi KQ-30/115-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil aprel oyidagi Shahrisabz tuman budgeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risida"gi KQ-30/115-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2023-yil yakuni bo'yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri A.Bozorovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil mobaynida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli budgetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar va tashabbusli budgetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotga 1-ilovaga asosan;

2023-yil mobaynida o'tkazilgan tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan takliflarda nazarda tadbirlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larni buyurtmachi tashkilotlarga ochilgan maxsus (401722) hisob raqamlariga o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (A.Bozorov) hamda tuman g'aznachilik bo'linmasi (B.Jumayev)lar tashabbusli budgetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tuman hokimligi axborot xizmati (B.Halimov) bilan birlgilikda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budget" axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining Mahalliy

budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Baratov, hamda tuman hokimining birinchi o'rinnbosari A.Rustamovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari tuman
Kengashi raisi**



S.A.Xasanov

Xalq deputatlari Shahrисабз туман Кенгашининг
2024-yil 25-yanvardagi
VI-71-12-4-67-K/24-son qaroriga
1-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirilishi yuzasidan

MA’LUMOT

Shahrisabz tumani

01-yanvar 2024-yil

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar (ming so‘mda)				Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga haqiqatda o‘tkazilgan mablag‘lar	Farqi	Izoh
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Tuman (shahar) budgetining tasdiqlangan umumiylarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar	6 758 000		6 758 000		13 516 000	-	
1,1	takliflarni amalga oshirish natijasida iqtisod bo‘lgan mablag‘lar	122 424		428 790	395 724	946 938	-	
1,2	O‘z.Res Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi PQ-117-son qarori bo‘yicha 2 mingdan ortiq ovoz to‘plagan takliflarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘lar			8 050 000		8 050 000	-	
2	Tuman (shahar) budgetining qo‘srimcha manbarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar	3 304 577	970 000			4 274 577	-	

2.1.	Shu jumladan	erkin qoldiq mablag‘lari	2 656 000				2 656 000	-	
2.2.		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	648 577	970 000			1 618 577	-	
2.3.		davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar						-	
2.4.		elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag‘lar						-	
2.5.		budgetdan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lar						-	
3	Jami ajratiladigan mablag‘lar		10 185 001	970 000	15 236 790	395 724	26 787 515	-	

Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha**MA'LUMOT****Shahrisabz tumani****01-yanvar 2024-yil****1-jadval**

T/r	Ko'rsatkich nomi		Summa
			(ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq		1 127 528
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*		26 787 515
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**		26 790 000
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar		19 106 289
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar		5 261 074
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar		1 009 456

2-jadval

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'Ichov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	12	umumiyligi (km)		14 140 000
2	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	7	soni		7 900 000
3	Maktab va Maktabgacha ta'lim binolarini ni ta'mirlash jihozlash bilan bog'liq tadbirlar	4	soni		2 550 000
4	Boshqa tadbirlar	2	soni		2 200 000
жами		25	X	X	26 790 000

Izoh:

* Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning 1-ilovasidagi Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar ustunining Jami ajratiladigan mablag'lar qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

** Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning 2-ilovasidagi Ajratilgan mablag'lar ustunining jami qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

Xalq deputatlari Shahrисабз туман Кенгашининг
2024-yil 25-yanvardagi
VI-71-12-4-67-K/24-son qaroriga
2-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan

MA’LUMOT

Shahrисабз tumani

01-yanvar 2024-yil

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to‘plangan ovozlar soni	shundan		Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so‘m)					
			onlayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag‘lar	Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘lar	Qoldiq mablag‘lar
2023-yil 1-mavsum bo'yicha g'olib takliflar											

1	00135721005	6477	0	6477	Shahrисабз tumani "Xitoy" MFY Chopiq qishlog‘ida joylashgan aholi dam olish maskanida ekoturizmni rivojlantirish uchun 5 km masofada 3 liniyali elektr toki o‘tkazish.	401722860102457049990280001	900 000	900 000	900 000	247000	653 000
---	-------------	------	---	------	--	-----------------------------	---------	---------	---------	--------	---------

2	0010289005	6435	0	6435	Shahrisabz tumanidagi "Hisor" MFY Almati va Qorut qishloqlarining asosiy yo'llarini 3 km bo'lgan qismini asfaltlashtirish	401722860102457045204118001	1 200 000	1 093 260	1 200 000	1082341	10 919
3	00115244005	5966	0	5966	Shahrisabz tumani "Xitoy" MFY Xitoy qishlog'ida aholi soni ko'payib borayotganligi, yangi xo'jaliklarning soni keskin oshishi hamda aholini ishsizlik sababli turli joylarda sarson bo'lishini oldini olish va xususiy tadbirdorlik va bog'dorchilikni rivojlanтирish, Xitoy qishlog'iga Tanxoz daryosidan SUV olib kelish kerak.	401722860102457063201110009	1 200 000	1 062 662	1 200 000	1018031	44 631
4	00148522005	5745	0	5745	Shahrisabz tumani "Xitoy" MFY Shurkul qishlog'iga ichimlik suvini Tanxoz daryosidan olib kelish uchun yordam berishingizni so'raymiz.	401722860102457063201110007	1 200 000	1 063 564	1 200 000	965044	98 520
5	00113049005	5505	0	5505	Shahrisabz tuman "Xitoy" MFY Ommog'on qishlog'i aholisini dehqonchilik va chorvachilik qilish ehtiyoji uchun va aholining bandligini ta'minlash maqsadida Tanxoz daryodan metall quvurlar orqali SUV olib kelish loyihasini davom ettirish.	401722860102457063201110010	1 200 000	1 060 857	1 200 000	1060857	
6	00137317005	5476	0	5476	Shahrisabz tumani "Xitoy" MFY Ommog'on qishlog'iga ekin maydonlarini sug'orish maqsadida keladigan suvni metall quvurlar orqali o'rnatish.	401722860102457063201110008	1 200 000	1 065 954	1 200 000	906162	159 792

7	0018222005	5350	0	5350	Shahrisabz tuman "Xitoy" MFY Xitoy qishlog'i uchun 2022-yil open budget tashabbusidan ovoz olish bilan yutib olingan loyihami davom ettirish uchun qo'shimcha suv quvurlarimi o'rnatish.	401722860102457063201110011	1 200 000	1 067 340	1 200 000	977859	89 481
8	00138334005	5277	0	5277	Shahrisabz tuman "Shiram'on" MFY Shiramon qishlog'ining ko'chalarini ichki yo'llarini asfaltlash.	401722860102457045204118002	900 000	816 190	900 000	816190	
9	00133439005	4974	0	4974	Shahrisabz tuman "Shakarteri" MFY Shovkan qishlog'ida Archazor ko'chasini 2,5 km (ta'mirlashdan qolgan qismini) ichki yo'llarini asfalt qilish.	401722860102457045204118003	1 200 000	1 081 089	1 200 000	1080512	577
10	00121050005	4736	0	4736	Shahrisabz tuman "Miraki" MFY 36-IDU maktabini mukammal ta'mirlash.	401722860102457092100072005	1 200 000	1 093 186	1 200 000	1052533	40 653
11	0018954005	4186	0	4186	Shahrisabz tumani "Hazara" MFY yuqori Hazara ko'chasi, Sherzozi ko'chasi va Ravot ko'chalarida jami 4 km yaroqsiz yo'llarni asfalt qoplamasи bilan qoplash.	401722860102457045204118004	1 200 000	1 080 905	1 200 000	1073078	7 827
12	0016738005	3095	0	3095	Shahrisabz tumani "Sayyod" MFY Boshqop qishlog'ini oqava va ichimlik suvi bilan ta'minlash.	401722860102457063201110006	1 000 000	917 265	1 000 000	871402	45 863
13	00110818005	2751	0	2751	Shahrisabz tumani "O'rtaqo'rg'on" MFY O'rtaqo'rg'on qishlog'ida joylashgan 19-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini 1973-yilda qurilgan binosini joriy ta'mirlash.	401722860102457091100072001	950 000	836 683	950 000	836683	

14	00130771005	2525	0	2525	Shahrisabz tuman "Shakateri" MFY xalq ta'limi bo'limiga qarashli 32-umumiyo'rta ta'lim mактабида ta'lim sifatini oshirish maqsadida maktabning moddiy texnika bazasini mustahkamlash.	401722860102457092100072004	150 000	104 920	150 000	104920	
15	00145584005	2412	0	2412	Shahrisabz tuman "Navbahor" MFY hududidagi Qoraqush ko'chasinging 1500 metri va Tanipar ko'chasinging 500 metrini (umumiyo'rta 2000 metr) ichki yo'llarga asfaltlashtirish.	401722860102457045204118005	1 000 000	911 025	1 000 000	911025	
16	0017636005	2409	0	2409	Shahrisabz tumani "Big'mi" MFY 2000 metr uzunlikdagi asfalt qoplamasini yotqizish. O'quvchilarning maktabga kelish va ketish uchun piyodalar (800 m) yo'lakchasini shakllantirish.	401722860102457045204118006	1 100 000	985 805	1 100 000	934925	50 881
17	00114969005	2346	0	2346	Shahrisabz tuman "Xo'jaxuroson" MFY 20-maktabining ta'lim sifatini oshirish maqsadida moddiy texnik bazasini yaxshilash.	401722860102457092100072002	250 000	135 000	250 000	135000	
18	00125863005	2019	0	2019	Shahrisabz tuman "Qutchi" MFYda Nuravshon, Quruvchi, Qadriyat ko'chalarini 3 km asfalt qilish.	401722860102457045204118007	1 200 000	1 082 134	1 200 000	1079304	2 830
18	2023-yilning 1- mavsumi bo'yicha jami						18 250 000	16 357 839	18 250 000	15 152 866	1 204 974
2023-yil 2-mavsum bo'yicha g'olib takliflar											

1	03166370005	13392	0	13392	Shahrisabz tuman "Mevazor" MFY Muminobod qishlog'ida 12 dona (100 xo'jalikka) mo'ljallangan transformator, 120 dona beton simyog'och o'rnatish va 15000 metr simyog'och himoyalangan kabel tortish.	401722860102457049990280002	1 300 000	1 300 000	1 300 000	0	1 300 000
2	031256364005	12731	0	12731	Shahrisabz tuman "Qo'shchinor" MFY Bijnom qishlog'ini ichki yo'llariga 3 km asfalt qoplamasi yotqizish va kapital ta'mirlash.	401722860102457045204118008	1 300 000	1 207 205	1 300 000	361151	846 054
3	031261768005	12428	0	12428	Shahrisabz tuman "Bog'ishamol" MFY Qorapoycha qishlog'i ichki yo'llarining 2,4 km qismiga 4,5 m kenglikda asfalt qoplamasi yotqizish.	401722860102457045204118009	1 200 000	1 114 356	1 200 000	334306	780 050
4	031257915005	12347	0	12347	Shahrisabz tumani "Yangiobod" MFYning markaziy ichki ko'chalarini 3 km qismini asfaltlashtirish.	401722860102457045204118010	1 320 000	1 231 999	1 320 000	1231398	601
5	03167380005	12159	0	12159	Shahrisabz tuman "Shiram'on" MFY Shiramon qishlog'ining qolgan 3.7 km ko'chalari va ichki yo'llarini asfaltlash.	401722860102457045204118011	1 320 000	1 215 452	1 320 000	1155326	60 126
6	03173442005	12045	0	12045	Shahrisabz tuman "Abziyat" MFY O'rmontepa qishlog'i ichki yo'llarining asfalt yotqizilmay qolgan 2,4 km qismiga ham 4,5 metr kenglikda asfalt qoplamasi yotqizish.	401722860102457045204118012	1 200 000	1 124 462	1 200 000	337338	787 124

					Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani "Chuqun" mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli Gulzor, Bog‘ibaland, Afshona va Nizomiy ko‘chalarida ichimlik suvi tarmoqlarini o‘tkazish va ikkita artizan qudug‘i qazdirish	401722860102457063201110012	900 000	816 049	900 000	533904	282 145
7	2023-yil 2-mavsum bo‘yicha jami					8 540 000	8 009 523	8 540 000	3 953 423	4 056 100	
25	2023-yilning 1-2- mavsumi bo‘yicha jami					26 790 000	24 367 362	26 790 000	19 106 289	5 261 074	

Izoh:

* Tadbirni amalga oshirish qiymati ustunida loyiha-smeta hujjatlariga asosan pudratchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomada tadbirni amalga oshirish uchun nazarda tutilgan qiymat aks ettiriladi.